

O`ZBEKISTONDA MILLIY KURASHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Muratov Muzaffar Shermamatovich

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti. Samarqand, O`zbekiston.

ANNOTATSIYA Kurash — sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkamayakka olishuvi. Kurashish san’ati ko‘p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma’lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o‘rin olib kelgan. Milliy kurashning xilma-xil ko‘rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Rossiya, O‘zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Kalit so`zlar: kurash, qoida, yonbosh, dzyudo, sport

KIRISH Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O‘zbekiston 1993-yildan a’zo). Xalqaro maydonda sport kurashining yunonrum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olinaboshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shugullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O‘zbekiston janubi) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon spool idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajodolarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganidan dalolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart ko‘yish yo‘li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo‘lgan. Bunga o‘zbek xalq qahramonlik dostoni — „Algomish“dagi Barchin shartlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi. Bu ta’rif zamonaviy Kurash qoidalariiga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariyning

„Devonu lug‘otit turk“, Alisher Navoiyning „Hamsa“, „Holoti Pahlavon Muhammad“, Zayniddin Vosifiyning „Badoye‘ ulvaqoye“, Husayn Voiz Koshifiyning „Futuvvatnomai sultoniy“, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida kurash haqida qimmatli ma'lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalqo‘rtasida keng ommalashgan. Shudavrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon qabilar kurash dovrug‘ini oshirishgan. O‘zbek xalqining an'anaviy sport turlaridan biri bo‘lmish kurash uch yarim ming yillik tarixga ega. Kurash o‘zbekcha so‘z bo‘lib, u qator qadimiy sharq adabiy manbalarida yakkamayakka olishuv va ijtimoiy ko‘ngilochar sport turi sifatida tilga olingan. Bundan ming yil muqaddam paydo bo‘lgan afsonaviy Alpomish eposida kurash olis o‘tmishda O‘zbekiston zaminida ommaviy tus olgan eng sevimli va nufuzli sport turi bo‘lganligi qayd etiladi. Qadimda va o‘rta asrlarda yashab ijod etgan qator faylasuf va tarixchilar o‘z asarlarida kurashni alohida ehtirom ila tilga olganlar.

NATIJALAR Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri bo‘lmish Abu Ali Ibn Sino kurash bilan shug‘ullanmoq jon va tan sog‘ligini ta’minlashning eng yaxshi vositasidir, deyae’tirof etgan. Shunga qaramasdan hali-hanuz kurash aynan qachon va qaerda paydo bo‘lganligi xususida aniq ma'lumotlar mavjud emas. O‘z navbatida bunday mavhumlik qator olimlar tomonidan kurashni qadimiy sport turlaridan biri sifatida e’tirof etilishi uchun to‘sinq bo‘la olmadi. Eramizning IX asrida kurash rivoji yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘sha kezlarda zamonaviy O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholi an'anaviy bayramlar, to‘yhashamlar va yirik jamoatchilik tadbirlari davomida kurashdan ko‘ngil ochish va dam olish vositasi sifatida foydalanganlar. Keyinroq kurash ko‘ngil ochish vositasidan mustaqil sport turi va jismoniy chiniqish usuliga aylandi. Eng kuchli kurashchilar xalq orasida ma'lumu-mashhur bo‘lib, ular haqida afsonalar to‘qila boshlandi. XII asrda yashab o‘tgan Pahlavon Mahmud buning yaqqol namunasidir. Hali-hanuz uning qabri ziyoratchilarining sevimli maskani va muqaddas qadamjolardan biri hisoblanadi. XIV asrda insoniyat tarixida yorqin iz qoldirgan tengi yo‘q sarkarda va davlat arbobi Amir Temur o‘z askarlarini chiniqtirish va jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida kurashdan foydalangan. Ma'lumki, Amir Temur armiyasi zamonasining eng qudratli va yengilmas qo‘smini hisoblangan. Vaqt o‘tishi bilan kurash zamonaviy O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholining eng sevimli va ardoqli an'alaridan biriga aylandi. Shu ma'noda kurash o‘zbeklarning qon-qoniga singib ketgan, deb aytish mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu sport turiga bo‘lgan muhabbat otalardan bolalarga meros sifatida o‘tib keladi. Bugungi kunga kelib birgina O‘zbekistonda kurash bilan muntazam shug‘ullanuvchilarining soni ikki millionga yetgan. Ushbu sport ishqibozlari va havaskorlarning soni esa behisobdir.

MUHOKAMA 1980 yillarning boshida mashhur o‘zbek kurashi ustasi, dyuzdochisi va sambochi Komil Yusupov o‘zbek kurashining boy merosini tadqiq etish ishlarini boshlab yubordi. Ushbu sport turining qayta tiklanishining faollaridan biri bo‘lgan mazkur zotning asosiy maqsadi kurashning xalqaro me’yorlarga mos bo‘lgan

yangicha qoidalarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. To'qsoninchi yillarning boshlariga kelib u ushbu sharaflı vazifani muvaffaqiyatlı ado etib o'zbek kurashini xalqaro arenaga olib chiqishni o'z oldiga maqsad qildi. Avvaliga u o'zi ishlab chiqqan kurash qoidalarini jamoatchilik, mutaxassislar va ishqibozlar e'tiboriga havola etdi. Yangi qoidalar o'zbek kurashining eng ardoqli an'analarini va maxsus kiyim bosh, musobaqalarni o'tkazish joyi va bellashuvning davom etish muddati kabixalqaro sport me'yorlarini o'zida mujassam etdi. Sport mutaxassislari Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan kurash qoidalari to'laligicha xalqaro sport talablariga javob berishini e'tirof etdilar. Kurash qoidalaringin asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular yotgan holda bellashuvni davom ettirilishiga yo'l qo'ymaydi. Sportchilardan birining tizzasi gilamga tegishi bilanoq hakam bellashuvni to'xtatadi va kurashchilar turgan holda musobaqani davom ettirishadi. Bu hol kurashni tez sur'atlarda olib borilishi va muxlislar uchun qiziqarli va maroqli bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari kurash qoidalari belbog'dan pastki qismni ushlovchi yoki og'riq qo'zg'atuvchi va bo'g'uvchi uslublarni ishlatishni ta'qiqlaydi. Shu tariqa kurash sportchilarga tan jarohati yetkazilishining oldi olingan eng xavfsiz sport turlaridan biriga aylandi. 1991 yilda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilishi kurashga yangicha hayot baxsh etdi. Respublika hukumati 70 yil totalitar tuzum davrida oyoq-osti qilingan o'zbek xalqining milliy qadriyatları va an'analarini qayta tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Milliy sport turi hisoblanmish kurashni qayta tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida belgilandi. 1992 yilda K.Yusupov O'zbekiston Respublikasi prezidenti qabulida bo'ldi. Bo'lib o'tgan suhbat chog'ida o'zbek kurashini nafaqat ona diyorimizda, balki chet ellarda ham rivojlantirish masalalari muhokama etildi. Kurashni haqiqiy xalqaro sport turiga aylantirish, keyinchalik esa olimpiada o'yinlari dasturiga kiritish eng asosiy maqsad bo'llib qolmoqda. O'sha uchrashuvdan so'ng, K.Yusupov boshchiligidagi faollar gruhi o'zbek kurashini xalqaro miqyosda rivojlantirishga qaritilgan faoliyatni boshlab yubordilar. Ular tomonidan O'zbekistonning turli hududlarida uyuştirilgan qator yirik musobaqalar muvaffaqiyati haqiqatdan ham barchani hayratga soldi. Mamlakatning turli chekkalaridan kelgan minglab kurashchilar musobaqalarda ishtirok etish istagini bildirgan bo'lsa, millionlab kurash ishqibozlari ushbu jozibali musobaqalardan bahra olish ishtiyoqida respublika bo'ylab stadionlarni to'ldirdilar. Kurash faollarining sa'y-harakatlari O'zbekiston bilan chegaralanib qolmadı. Ular 1992 yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSh, Monako va Rossiyada o'tkazilgan qator nufuzli sport anjumanlarida o'zbek kurashini tanitishga qaratilgan tadbirlarga bosh qosh bo'ldilar.

XULOSA Ushbu sa'y-harakatlar natijasida O'zbekiston poytaxti Toshkentda bo'lib o'tgan kurash bo'yicha birinchi xalqaro musobaqalarda dunyoning 30 ga yaqinmamlakati vakillari ishtirok etdilar. Toshkent markazida 30 ming kishiga

mo‘ljallangan stadion tomoshabinlarga to‘lib ketdi. O‘zbekiston va uning tashqarisidagi millionlab teletomashabinlar televizorda batafsil olib ko‘rsatilgan musobaqalarni yaqindan kuzatib bordilar. Kurash eng qadimiy bellashuv turlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga jahon sahnasida u eng yosh sport turi hamdir. O‘zining uzoq o‘tmishiga qaramasdan kurash faqatgina 1998 yilda jahon sport sahnasida shahdam odim tashladi. Ushbu odimlar na yengil va na qisqadir. Avval boshidanoq kurashning porloq odimlari va undan kutilgan maqsad aniq belgilangan edi. U ham bo‘lsa O‘zbek kurashini xalqaro sport turiga aylantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shermamatovich, M., Yalgashevich, K., & Narkulovich, S. (2021). The development of physical preparedness of student young people. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2699-2704.
2. Shermamatovich, M. M., Tursunovna, H. U., Zayniddinovich, N. I., Boltayevich, A. S., & Yalgashevich, K. S. (2021). Physical education of student youth in modern conditions. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 1589-1593.
3. Shermamatovich, M. M. (2023). Psychological Description Of Sport And Psycological Development Of Sportsmen. *Eurasian Research Bulletin*, 17, 7-9.
4. Shermamatovich, M. M., Norkulovich, S. K., & Tursunovna, H. U. (2022). PLACE AND ROLE OF PSYCHOLOGICAL AND VOLITIONAL TRAININGIN THE TRAINING PROCESS OF STUDENTS-BOXERS. *World Bulletin of Management and Law*, 8, 141-144.
5. Shermamatovich, M. M., & Boltaevich, A. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICAL CULTURE. *World Bulletin of Management and Law*, 7, 99-100.
6. Shermamatovich, M. M., & Boltaevich, A. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICAL CULTURE. *World Bulletin of Management and Law*, 7, 99-100.
7. Shermamatovich, M. M., Zayniddinovich, N. I., Boltaevich, A. S., Norqulovich, S. Q., Muzaffarovich, S. A., & Abriyevich, E. Q. Endurance Formation in General Physical Training Students. *International Journal on Integrated Education*, 4(3), 356-359.
8. Yalgashevich, X. S., & Shermamatovich, M. M. Enhancing Athletes' Regained Performance Through Rational Nutrition. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (1), 1-6.
9. Shermamatovich, M. M., & Latif, T. (2023). DEVELOPMENT OF SPORTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 374-377.
10. Shermamatovich, M. M., & Aybxonovich, T. M. (2024). O’QUVCHILARNING FUTBOL BO’YICHA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK TOMONLARINI O’RGANISH MUAMMOLARI. *Journal of new century innovations*, 44(1), 84-87.

11. Shermamatovich, M. M. (2023). THE SPORT OF WRESTLING AND THE LAWS OF THE FIELD OF WRESTLING. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 84-88.
12. Shermamatovich, M. M. (2023). DEVELOPMENT OF WRESTLING SPORTS IN UZBEKISTAN AND AWAKENING OF THE CONCEPT OF PATRIOTISM IN STUDENTS. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(5), 36-39.
13. Murodov Muzaffar Shermamatovich, Normaxmatov Ilgom Zayniddinovich, Axmedjanov Shuxrat Boltayevich, Ziyatov Muxammad Nomozovich, Sattarov Qarshiboy Norkulovich, & Khusainov Shamshidin Yalgashevich. (2024). PROPOSALS ON INNOVATIVE SOLUTIONS OF ORGANIZING THE ARCHITECTURE OF MULTIFUNCTIONAL SPORTS FACILITIES. *Journal of Advanced Zoology*, 45(S2), 131–135. <https://doi.org/10.53555/jaz.v45iS2.3852>
14. ERTALABKI BADAN TARBIYA HAMDA JISMONIY TAYYORGARLIKNING INSON ORGANIZMIGA FOYDASI N.I. Zayniddinovich – 2023
15. FORENSIC ASSESSMENT OF THE NATURE OF DENTAL INJURIES OA Ergashevich, SE Islamov, NI Zainitdinovich - The American Journal of Medical Sciences and ..., 2022
16. IMPROVING THE METHOD OF TRAINING BOXERS WITH THE APPLICATION OF PROTECTION" LEAVING TO THE SIDE"
17. AS Boltaevich, NI Zayniddinovich
18. World Bulletin of Management and Law 8, 139-140, 2022
19. ЗАЩИТА ПРАВ ПАЦИЕНТА ПРИ ПРОВЕДЕНИИ МЕДИЦИНСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ
20. ШЭ Исламов, КН Ураков, ИЗ Нормахматов - Тверской Медицинский Журнал Учредители ...
21. PROPOSALS ON INNOVATIVE SOLUTIONS OF ORGANIZING THE ARCHITECTURE OF MULTIFUNCTIONAL SPORTS FACILITIES
22. MMSNIZASBZMNSQNKS Yalgashevich Journal of Advanced Zoology, 2 (45(S2)), 131–135., 2024
23. МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ НАДПОЧЕЧНИКОВ ПРИ ВВЕДЕНИИ ДИСТИЛЛИРОВАННОЙ ВОДЫ
24. Ш Исламов, Н Махматмурадова, И Нормахматов Журнал гепато-гастроэнтерологических исследований 2 (3.1), 22-28, 2021
25. JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARI FAOLIYATINING ILMIY – PEDAGOGIK ASOSLARI NI Zayniddinovich Journal Of New Century Innovations 4 (No. 1 (2024):), 133-135, 2024
26. АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМАНДНЫХ СПОРТОВ И СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТАИЗ Нормахматов https://academicsresearch.ru/public/journals/17/cover_issue_133_en_US.jpg 2 ..., 2024

27. **IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN PRIMARY CLASS CHILDREN** NI Zainiddinovich International Journal of Formal 3 (3), 66–69., 2024
28. **THE IMPORTANCE OF THE ROLE OF SPORTS AND GAMES IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION** NI Zayniddinovich Genius Journals Publishing Group, 17 (ISSN: 2795-7365), 10-12, 2023
29. **THE IMPORTANCE OF THE ROLE OF SPORTS AND GAMES IN THE SYSTEM OF PHYSICAL EDUCATION** NI Zayniddinovich <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb>, Genius Journals Publishing Group, 17 (ISSN: 2795-7365), 10-12, 2023
30. **Basic Football Elements Terms and Conditions and Cluster-Based Training of Tasks** NI Zayniddinovich Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences 2 (Issue –11), 106-108, 2023
31. **The Role Of Physical Culture In The Life Of Students**
32. Normaxmatov Ilxom Zayniddinovich international journal of scientific & technology research volume 10 (issn ...), 2021
27. Хусаинов Ш. Я. и др. ПРЕИМУЩЕСТВА КОМАНДНЫХ ВИДОВ СПОРТА ДЛЯ АДАПТАЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 6. – №. 1. – С. 47-55.
33. 28. Shermamatovich M. M., Yalgashevich X. S., Muzaffar o'g'li S. A. SPORT KURASHIDA SARALASH: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 6. – №. 1. – С. 69-75.
34. 29. Shermamatovich M. M. The Role of Physical Education in Our Life //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 63-65.
35. 30. Муратов М. Ш., ўғли Шерматов А. М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 186-192.
36. 31. Shermatovich M. M. JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING JIHATLARI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 48. – №. 1. – С. 130-132.
37. 32. Shermamatovich M. M. et al. Proposals On Innovative Solutions Of Organizing The Architecture Of Multifunctional Sports Facilities //Journal of Advanced Zoology. – 2024. – Т. 45.
38. 33. Shermamatovich M. M., Ayxonovich T. M. O'QUVCHILARNING FUTBOL BO'YICHA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK TOMONLARINI O'RGANISH MUAMMOLARI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 44. – №. 1. – С. 84-87.